

„PEDAGOGIK KONFLIKTOLOGIYA” FANINING BO‘LAJAK PEDAGOGLAR FAOLIYATIDAGI AHAMIYATI

Dilyoraxon Turg‘unboyeva

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti,
Ta‘lim va tarbiya nazariyasi (boshlang‘ich ta‘lim) 1-kurs magistri
dilyoraxonturgunboyeva@gmail.com*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10044903>

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o‘qituvchi faoliyatida vujudga kelishi mumkin bo‘lgan konfliktlarga pedagogning javobi qanday bo‘lishi va bunday vaziyatlarda to‘g‘ri xulosaga kelishda ushbu fanning muhimligi yoritilgan. Konfliktologiyani o‘rganish orqali ta‘lim sifatini oshirish va o‘quvchilar bilan do‘stona munosabat qura olish imkoniyatlari ifodalangan.*

Kalit so‘zlar: *konfliktlar, pedagogik konfliktologiya, pedagogik mahorat, bola psixologiyasi, nizo, bilim.*

Hozirgi kunda biz har tomonlama rivojlanib borayotgan jamiyatda yashamoqdamiz. Bugunimiz kechamizdan anchagina farovon. Lekin afsuski, bu bilan birga atrofimiz ham allaqachon konfliktlarga to‘la. Inson xohlaydimi, yo‘qmi har bir kunida konfliktlar bilan to‘qnashadi va bu tabiiy jarayon. Chunki bunday bo‘lmasligiga jamiyatdagi insonlar va vaziyatlar yo‘l qo‘ymaydi. Inson esa jamiyatdan ajralib yasholmaydi va buni tasavvur qilish ham mumkin emas. Bo‘lajak pedagoglarda pedagogik konfliktlarni oldini olish va bartaraf etish ko‘nikma va malakalarini shakllantirishda mazkur fan alohida ahamiyatga ega.

Obyekti inson omili bo‘lgan kasblarda esa bunday holat boshqa kasblarga qaraganda ko‘proq uchraydi va bulardan bittasi bu o‘qituvchilikdir. O‘qituvchilar kun davomida o‘quvchilar, hamkasblar va rahbarlar bilan muloqot qiladi. Bu jarayonda esa ko‘plab konfliktlar yuzaga kelishi mumkin: o‘quvchi- o‘quvchi, o‘qituvchi – o‘quvchi, o‘qituvchi – o‘qituvchi, o‘qituvchi – rahbar o‘rtasida va hk. Bu kabi konfliktlar vujudga kelganda esa, albatta, o‘qituvchi bu jarayon va uning yechimida muhim rol o‘ynaydi. Avvalo, yetuk pedagog konflikt vujudga kelishidan avval uni bartaraf etishi zarur va u ro‘y berganda esa u tomonlar uchun eng to‘g‘ri yo‘lni tanlashi muhimdir. Bunda esa, shubhasiz, pedagog uchun bilim kerak bo‘ladi. „Pedagogik konfliktologiya” fani esa o‘qituvchilarni konfliktlarga va ularning oldini olishga qarshi qurollantiradi.

Konfliktlar aynan bir sohada ko‘rinmaydi, u barcha sohalarda o‘zini namoyon etishi mumkin. Shu bilan birga u har bir inson bilan hayoti davomida birga bo‘ladi. Pedagogika fanlari nomzodi M.T.Axmedova fikriga ko‘ra: „Konfliktlar ba‘zan qo‘qqisdan, hech kutilmagan holda vujudga kelishi hamda inson hayot tarzini tubdan o‘zgartirib yuborishi mumkin. Konflikt har bir inson hayotining ajralmas qismi bo‘lib, hech bir inson konfliktlardan o‘zini „kafolatlanganman” deb ishonch bilan ayta olmaydi. Shunga ko‘ra

o'qituvchi ham dars jarayonida o'quvchilar o'rtasidagi mojarolarga duch keladi va bu ziddiyatni adolatli hal qilishi ahamiyatlidir. O'qituvchi bu paytda o'quvchilarning psixologik holatlarini, muammoning asl sababini ko'ra olishi zarur. Pedagog, albatta, tomonlarni alohida eshitishi, to'g'ri fikr yuritishi va so'nggida adolatli qarorni aytishi va bu dars sifatiga salbiy ta'sir qilmasligini inobatga olishi kerak. Buning uchun o'qituvchi o'quvchi yoki talabalar orasida konflikt yuzaga kelishiga sharoit yaratib berayotgan omillarni yo'q qilishi talab qilinadi. Dars davomida barcha o'quvchi talabalar bilan oson muloqotga kirisha olishi, do'stona atmosfera yaratish orqali asosiy maqsad bo'lgan yangi bilimni tushunarli bera olishi, har bir o'quvchining psixologik sharoitidan kelib chiqqan holda suhbat qilishi, bir so'z bilan aytganda mohir psixolog bo'la olishi kerak. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi konflikt esa, o'quvchini shaxs sifatida ko'ra olishi va vaziyatga o'zining his-tuyg'ularini aralashtirmasligi lozim. Chunki insonda mavjud bo'lgan his-tuyg'ular vaziyatni kuchaytirib uni chigallashtirishga hissa qo'shadi. Buning oqibatida pedagog tarbiyalanuvchini kamsitishi, uning ruhiyatini sindirib qo'yishi mumkin. So'nggi bunday oqibatlar bilan tugagan mojarolarda o'quvchida o'qituvchida yomon taassurot qolishi, darsga bee'tiborliligi, o'zlashtirish sifati tushib ketishi kuzatiladi. O'qituvchining muammoli vaziyatda ko'rsatgan axloqi nafaqat bir o'quvchida balki butun sinfda salbiy o'ylarni qoldiradi. Pedagog o'quvchi-talabalar uchun zolim, axloqsiz tipdagi o'qituvchi emas, ular uchun ideal va sevimli bo'lmog'i kerakligini hamisha yodda tutishi lozim.

Dars jarayonidan tashqari holatda pedagoglar rahbar va o'zlarining hamkasblari bilan bahslashib qolish jarayonlari hozirgi kunda eng ko'p kuzatilayotgan konfliktlardandir. Buning asosiy sababi esa, albatta, xodim va rahbarlarning o'z burch-majburiyatlarini to'liq bilmasliklari va ularda noto'g'ri shakllangan „Men“ ning ustun kelishidir. Bu kabi vaziyatlarda rahbar o'z lavozimini suiiste'mol qilmasdan, vaziyatga tog'ri yechim berishi va to'g'ri yechim topishi, pedagog esa o'z majburiyatlari va burchlarini to'liq holda bajarishi lozim. O'z vazifalarini to'liq tushungan, mutaxassislik va psixologik bilimlarini mukammal egallagan kadrlar faoliyat yuritadigan maktab jamoasida nizo va muammolar kelib chiqish ehtimoli pasayadi. Muammoli vaziyatlarga tushib qolmaslikni eng yaxshi usuli bu ana shunday vaziyatdagi jamoadoshlarni va ular bilan sodir bo'layotgan holatlarni kuzatishdir. Konfliktlarning ijobiy jihati shuki, kuzatib xulosa qilish orqali yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizolarni bartaraf etish mumkin. Eduard Vinyamata o'z maqolasida shunday degan edi: „Konfliktologiya – mojarolar, inqirozlar va zo'ravonlik muhitida bizda paydo bo'ladigan bilim va ko'nikmalar to'plamidir“. Darhaqiqat, inson o'sha vaziyatda qanchalik stressga tushmasin, kelajak hayotida ana shu ziddiyatlar davridagi olgan xulosalari bilim tarzida xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim jarayonida paydo bo'lgan har qanday muammoni qisqa vaqt ichida hal qilish va unga chora topish mumkin, lekin ana shu vaqt ichida pedagog o'zini munosib tutishi, nizolarga o'zining kreativ yondashuvga egaligi bilan tarbiyalanuvchilarga o'rnak bo'la olishi kerak. Ta'lim va tarbiya qanchalik bir-biriga bog'liq bo'lsa, pedagogik konfliktologiya va o'quvchi psixologiyasi bir-biri bilan shunchalik ajralmasdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Axmedova M.T. „Pedagogik konfliktologiya’’. – T, 2020.
2. Sayidahmedov N. „Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya’’. – T., 2003.
3. Lenov N.I. „Konfliktologiya’’. Darslik . - M, 2006
4. „Journal of conflictology’’. – C, 2010